

2-TOM, 5-SON
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI

Qo'shoqova Farangiz Rahmon qizi

Termiz davlat universiteti(TerDU) Yuridik fakulteti talabasi

Allayarova Muattar Choriyorovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti Fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessi
o'qituvchisi

Fuqarolik kodeksi 40-moddasida belgilab o'tilgan yuridik shaxslarning turlari keltirib o'tilgan unga muvofiq foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin. Tijoratchi bo'lmagan tashkilot o'zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin. Yuridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlar)ga va boshqa birlashmalarga Qonunga muvofiq birlashishlari mumkin.

Yuridik shaxs ushbu Kodeks, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek ustav va boshqa ta'sis hujjatlari asosida ish olib boradi.

Nodavlat notijorat tashkiloti — jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan foydani o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Aynan shu xususiyatiga ko'ra tijoratchi tashkilotlardan farq qiladi. Ya'ni tijoratchi tashkilotlar daromat olishni o'zining asosiy maqsadi qilib olsa notijorat tashkilotlar esa aksincha. Bunday maqsadni asosiy faoliyat qilib olishmaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari tashkilotlari kamida ikta nodavlat notijorat tashkiloti tashabbusi bilan tuzilishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi va o'z faoliyatini olib boradi. Nodavlat notijorat tashkiloti



2-TOM, 5-SON

tomonidan qonunbuzarlik holatlari yuz bergan holatlarda prokuratura yoki adliya organlari tomonidan mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbariga holat yuzasidan taqdimnoma kiritiladi. Agar belgilangan muddatda qoidabuzarlik bartaraf etilmasa prokuratura yoki adliya organlari taqdimnomasiga muvofiq sudning qarori bilan olti oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yiladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari ta'sis hujjatlarida belgilangan har qanday turdagi faoliyatni amalga oshiradi. Hozirgi kunda nodavlat notijorat tashkilotlarining soni 10 mingga yaqin bu ko'rsatkich 1991-yilda atigi 100 taga ham yetmagan. Bugungi kunda mamlkatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida eng ko'p qariyb 2000 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi*
2. *Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi darslik. T.: "Toshkent". 2022. 407-426-betlar.*
4. O'zbekiston Respublikasi "Nodavlat notijorat tashkilotlari" to'g'risidagi qonun
Internet manbalari
 1. <https://lex.uz/docs/-11360>
 2. <https://lex.uz/docs/-180552>
 3. Daryo.uz

